MOLIYA-KREDIT JARAYONLARI: INVESTITSION FAOLLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMI SIFATIDA 787
Madaminov In’omjon Ozodovich

YASHIL IQTISODIYOTDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI 792
Karimov Islombek Bekpo‘lat o‘g‘li

OLIY TA’LIMDA ILMIY TADQIQOTLAR VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGI 798
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich

XUSUSIY MAKTABLARNING BOSHQARUV TIZIMINI QAROR QABUL TIZIMLARI VA O‘RGANUVCHI ANALITIKASI YORDAMIDA YANGILASHNING YO‘LLARI 802
Esanova Shohida

MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 812
Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna

KORXONALARDA KREDITOR QARZDORLIKNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI 819
Mirzaev Ozod Furkatovich

ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ПРОДУКТИВНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ 824
Киличева Феруза Бешимовна

MODERN MECHANISMS FOR MONITORING REGIONAL DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL ECONOMY 828
Karimova Shirin Zokhid qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ КРЕДИТНОГО СКОРИНГА ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ БЕЗ БАНКОВСКОЙ ИСТОРИИ В УЗБЕКИСТАНЕ 833
Шухратова Мадинабону Икром кизи

SHAHAR EKOLOGIYASI: SHAHAR EKOTIZIMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH 841
Erkiniva Mukarram Olimjon qizi

CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI 845
Abdug‘aniyev Oybek Akmaljon o‘g‘li

KUZATUV KENGASHI XUSUSIYATLARINING KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA’SIRI: NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUV 850
Jumayeva Go‘zal Sherxon qizi

EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH NATIJALARI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MUHIM AMALIY AHAMIYAT 854
Sattorov Firdavs Ziyodullayevich

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI 858
Abduholikov Kamoldin Mahammadjonovich

SANOAT KORXONALARINING HUDUDLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH 862
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING EKOLOGIK JIHATLARI 867
Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o‘g‘li

INKLYUZIV TA’LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING XALQARO MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI 872
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna

SANOAT KORXONALARIDA “YASHIL” TRANSFORMATSIYA JARAYONINING XUSUSIYATLARI 877
Ismatulloyeva Madinabonu Fozil qizi

TO‘QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH 884
Kadirova L.G.

MAIN DIRECTIONS FOR DEVELOPING SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION 887
Nasretdinova Farangis Odilovna

THE IMPORTANCE OF MARKETING COMMUNICATIONS IN THE SERVICES SECTOR 895
Mamatkulova Shoira Djalolovna

AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG‘BATLANTIRISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI 900
Mustafoyev G‘olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich

BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA ULARNI QO‘LLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI 906
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi

KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI 911
Salimova Husniya Rustamovna

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA 918
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna

XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIYAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O‘ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI 926
Rasulova Dilfuza Valiyevna

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O‘SISH VA MEHNAT BOZORI KO‘RSATKICHLARINING DINAMIKASI 932
Qodirov Asliddinxo‘ja Mahammadjon o‘g‘li

FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIFIKATSIYA ELEMENTLARINI QO‘LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL 937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH 945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi

TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 948
Murodova Zilola Asatulla qizi

KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI 952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich

NODAVLAT OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 959
Yaqubova Nodira Olim qizi

РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ 964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срожиддинова Зарина Хайриддиновна

KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG‘BATLANTIRISH AHAMIYATI 970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o‘g‘li

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA’MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O‘RNI 977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich

HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTSIONAL SALOHIYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOY TAJRIBASI 983
Bekchanov Davron Masharipovich

O‘ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O‘RNI 988
Anvarova Lobarxon

TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG‘URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT 992
J.Kamalova

MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI 999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO‘NALISHLARI 1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich

KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA) 1009
Sirojov Oxunjon Odil o‘g‘li

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI 1015
Bobojonov To‘lqinbek Maxmud o‘g‘li

ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELI 1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna

IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI 1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo‘rayev Asadbek Anvarjon o‘g‘li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 1031
Камилова Наргиза Абдукахоровна

THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES 1036
Ataxanov Umidbek Olimovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI 1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich

OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI 1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna

УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР 1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH 1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li

BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI 1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna

ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ» 1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович

DAVLATNING IQTISODIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH 1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li

TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI 1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li

TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI 1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich

O‘ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI

Mamatov Xabibulla Mamatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Audit” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari, institutsional asoslari va istiqbolli yo‘nalishlari tahlil qilingan. Mamlakatda auditorlik faoliyatini isloh qilish jarayonlari, xalqaro audit standartlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar integratsiyasi va audit sifatini oshirish mexanizmlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida auditorlik bozorini raqobatbardosh rivojlantirish, sifat nazorati tizimini kuchaytirish va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuvlar milliy audit tizimini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: audit, auditorlik faoliyati, xalqaro audit standartlari, audit sifat nazorati, raqamli audit, institutsional islohotlar, korporativ boshqaruv.

Abstract. This article analyzes the development trends of auditing activity in Uzbekistan, its institutional foundations, and future directions. The study examines the processes of auditing reform in the country, the implementation of international auditing standards, the integration of digital technologies, and mechanisms for improving audit quality. Based on the research results, scientifically grounded recommendations were developed to enhance the competitiveness of the audit market, strengthen the quality control system, and improve professional training. The proposed approaches contribute to aligning the national audit system with international practices.

Key words: audit, auditing activity, international auditing standards, audit quality control, digital audit, institutional reforms, corporate governance.

Аннотация. В данной статье проанализированы тенденции развития аудиторской деятельности в Узбекистане, её институциональные основы и перспективные направления. Рассмотрены процессы реформирования аудиторской деятельности в стране, внедрение международных стандартов аудита, интеграция цифровых технологий и механизмы повышения качества аудита. В результате исследования разработаны научно обоснованные предложения по повышению конкурентоспособности аудиторского рынка, усилению системы контроля качества и совершенствованию подготовки кадров. Предложенные подходы направлены на сближение национальной системы аудита с международной практикой.

Ключевые слова: аудит, аудиторская деятельность, международные стандарты аудита, контроль качества аудита, цифровой аудит, институциональные реформы, корпоративное управление.

KIRISH

Iqtisodiyotni liberallashtirish va moliyaviy shaffoflikni ta’minlash sharoitida auditorlik faoliyati mamlakat iqtisodiy tizimining muhim institutsional elementiga aylandi. Audit moliyaviy hisobot ishonchliligini ta’minlash orqali investorlar, kreditorlar va davlat organlari uchun muhim axborot manbasini shakllantiradi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda korporativ boshqaruvni rivojlantirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish va investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar audit sohasini yangi bosqichga olib chiqdi.

Shu bilan birga, global iqtisodiy integratsiya sharoitida milliy audit tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Mazkur maqolaning maqsadi – O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining hozirgi holatini tahlil qilish va uning istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining istiqbollarini ilmiy asosda baholashda xalqaro tajriba va nazariy yondashuvlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, moliyaviy barqarorlikni baholash va bankrotlik xavfini aniqlashga oid tadqiqotlar auditorlik xulosalarining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb

etadi. Edward I. Altman 1968-yilda ishlab chiqqan diskriminant tahlil modeli korxonalarning moliyaviy holatini oldindan baholash imkonini berib, auditorlar uchun risklarni aniqlashda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv audit jarayonida moliyaviy ko'rsatkichlar asosida subyektning barqarorligini chuqur tahlil qilish zarurligini asoslab beradi.

Audit hisobotlarida "going concern" tamoyilining ahamiyati ham zamonaviy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Michael A. Geiger va Kumar Raghunandan (2002) tadqiqotlarida auditorlarning uzluksizlik tamoyiliga oid xulosalari korxonaning kelajakdagi faoliyatini baholashda muhim signal vazifasini bajarishi ko'rsatib o'tiladi. Keyinchalik Elizabeth Carson va hammualliflari (2013) ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni umumlashtirib, auditorlik hisobotlarida noaniqliklarni ochiqlash investorlar uchun axborot shaffofligini oshirishini ta'kidlaydi. Bu esa auditorlik faoliyatida axborot ishonchliligi va ochiqlik darajasini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Audit nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga oid umumlashtirilgan yondashuvlar Mark DeFond va Jieying Zhang (2014) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular auditorlik sifatini belgilovchi asosiy omillar sifatida mustaqillik, professional kompetensiya va tartibga solish mexanizmlarini ajratib ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlar audit tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va auditorlarning javobgarligini oshirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Xalqaro standartlar doirasida auditorlik faoliyatini tashkil etish masalalari International Auditing and Assurance Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan ISA 570 (Revised) orqali tartibga solinadi. Ushbu standart auditorlardan korxonaning uzluksiz faoliyat yuritish qobiliyatini baholashni, mavjud noaniqliklarni aniqlashni hamda bu haqda hisobotda aniq va asoslangan xulosa berishni talab qiladi. Mazkur yondashuv audit sifatini xalqaro darajaga olib chiqishda muhim normativ asos hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda auditorlik faoliyatining istiqbollari, avvalo, xalqaro standartlarni to'liq joriy etish, moliyaviy tahlil vositalaridan keng foydalanish hamda auditorlik hisobotlarining shaffofligini oshirish bilan uzviy bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, milliy audit tizimini rivojlantirishda global ilmiy yondashuvlarni adaptatsiya qilish, auditorlarning professional malakasini oshirish va institutsional muhitni takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, institutsional yondashuv hamda tahliliy va sintez usullari qo'llanilgan. Axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro audit standartlari, moliyaviy hisobotlar va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda auditorlik faoliyatini isloh qilish va uni xalqaro standartlar asosida qayta tashkil etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirildi, xalqaro audit standartlari joriy etildi hamda litsenziyalash tartibi qayta ko'rib chiqildi. Bu o'zgarishlar auditorlik xizmatlari bozorini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qildi. O'zbekistonda auditorlik faoliyatining institutsional rivojlanish tendensiyalarini tizimli baholash maqsadida quyidagi jadval ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, bozor tuzilmasida kichik auditorlik tashkilotlarining ulushi yuqori bo'lib, ularning xalqaro talablar asosida ish yuritish imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda. Bu esa audit sifatini barqaror ta'minlash va raqobat muhitini shakllantirishda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda auditorlik faoliyatining institutsional rivojlanish tendensiyalarini tizimli baholash maqsadida quyidagi jadval ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda auditorlik faoliyatining institutsional o'zgarishlari[1]

№	Yo'nalish	Amalga oshirilgan chora	Kutilayotgan natija
1	Qonunchilik	Audit to'g'risidagi qonunni takomillashtirilishi	Huquqiy aniqlik
2	Standartlar	Auditning xalqaro standartlarining joriy etilishi	Xalqaro muvofiqlik
3	Litsenziyalash	Talablarni kuchaytirish	Bozor sifatini oshirish
4	Nazorat	Sifat nazorati mexanizmlari	Audit ishonchliligi

1 Muallif ishlanmasi

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, institutsional islohotlar audit sohasini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Biroq, mazkur jarayonni samarali davom ettirish uchun sifat nazoratini mustaqil mexanizmlar orqali kuchaytirish zarur.

Audit sifatini ta’minlashdagi asosiy muammolar ichki sifat nazorati tizimining yetarli darajada ishlamasligi va professional skeptitsizmning pastligi bilan bog‘liq. Ayniqsa, riskka asoslangan audit yondashuvining to‘liq qo‘llanilmasligi tekshiruv samaradorligini pasaytiradi.

Bundan tashqari, auditorlik dalillarini raqamli formatda yig‘ish va tahlil qilish imkoniyatlarining cheklanganligi audit jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Audit sifatini ta’minlashga ta’sir etuvchi omillar quyidagi jadvalda umumlashtirildi (2-jadval).

2-jadval. Audit sifatini cheklovchi omillar[2]

№	Muammo	Ta’sir darajasi	Audit risklariga ta’siri
1	Ichki nazoratning zaifligi	Yuqori	Risk oshadi
2	Skeptitsizm pastligi	Yuqori	Xatolik ehtimoli
3	Raqamli instrumentlar kamligi	O‘rta	Samaradorlik past
4	Malaka yetarli emasligi	O‘rta–yuqori	Sifat pasayadi

Jadval natijalari audit sifatini oshirish uchun ichki nazorat va malaka tizimini kuchaytirish, shuningdek, raqamli audit instrumentlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Jahon amaliyotida audit jarayonlarida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Big Data tahlili, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan audit dasturlari risklarni aniqlashda yuqori samara bermoqda. O‘zbekistonda mazkur texnologiyalarni joriy etish audit samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Raqamli audit instrumentlari tekshiruv tezligini oshiradi, inson omilini kamaytiradi va ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa audit jarayonini shaffof va ishonchli qiladi.

Raqamli audit texnologiyalarining afzalliklari quyidagi jadvalda tizimlashtirildi (3-jadval).

3-jadval. Raqamli audit texnologiyalarining afzalliklari[3]

№	Texnologiya	Qo‘llanish sohasi	Samaradorlik ta’siri
1	Big Data	Moliyaviy ma’lumot tahlili	Riskni erta aniqlash
2	Sun’iy intellekt algoritmlari	Avtomatik tekshiruv	Xatolikni kamaytirish
3	Ma’lumotlar tahlili	Trend tahlil	Samarali qaror qabul qilish
4	Avtomatlashtirilgan dasturlar	Hujjat tekshiruvi	Vaqt va resurlarni tejash

Jadval ma’lumotlari raqamli transformatsiya audit istiqbolining asosiy drayveri ekanligini tasdiqlaydi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish audit sifatini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, auditorlik faoliyatining istiqbolli rivojlanishi institutsional islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq. Audit bozorida raqobat muhitini kuchaytirish va xalqaro audit tarmoqlari bilan hamkorlikni kengaytirish milliy audit tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Shu bilan birga, sifat nazoratining mustaqil mexanizmlarini joriy etish va audit faoliyati ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini muvozanatli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining rivojlanish dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar sohaning huquqiy va tashkiliy asoslarini sezilarli darajada mustahkamladi. Xalqaro audit standartlarining joriy etilishi, litsenziyalash tizimining takomillashtirilishi va korporativ boshqaruv mexanizmlarining rivojlanishi milliy audit tizimini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirishga xizmat qildi. Biroq, bozor tuzilmasidagi nomutanosiblik, kichik auditorlik tashkilotlarining resurs imkoniyatlari cheklanganligi hamda sifat

2 Muallif ishlanmasi
3 Muallif ishlanmasi

nazorati mexanizmlarining yetarli darajada samarali ishlamasligi sohadagi tizimli muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois auditorlik faoliyatini institutsional jihatdan yanada chuqurlashtirish va bozor infratuzilmasini mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari audit sifatini ta’minlash masalasi markaziy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Ichki sifat nazorati tizimini kuchaytirish, professional skeptitsizmni oshirish va riskka asoslangan audit yondashuvini to‘liq joriy etish audit samaradorligini oshirishning asosiy omillaridir. Shu bilan birga, auditorlik dalillarini to‘plash va tahlil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish audit jarayonini shaffof va tezkor qilishga xizmat qiladi. Auditorlar malakasini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish va xalqaro sertifikatlashtirish mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash audit sifatining barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining istiqbolli rivojlanishi raqamli transformatsiya, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustaqil sifat nazorati institutlarini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, Big Data va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish auditning yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratadi. Taklif etilgan ilmiy yondashuvlar milliy audit tizimini raqobatbardosh, shaffof va xalqaro standartlarga mos holatga keltirishga xizmat qiladi hamda investitsiya muhitini yaxshilash va moliyaviy hisobot ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. The Journal of Finance, 23(4), 589–609. https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x
2. Carson, E., Fargher, N., Geiger, M., Lennox, C., Raghunandan, K., & Willekens, M. (2013). Audit reporting for going-concern uncertainty: A research synthesis. Auditing: A Journal of Practice & Theory, 32(1), 353–384. https://doi.org/10.2308/ajpt-50324
3. DeFond, M., & Zhang, J. (2014). A review of archival auditing research. Journal of Accounting and Economics, 58(2–3), 275–326. https://doi.org/10.1016/j.jacceco.2014.09.002
4. Geiger, M. A., & Raghunandan, K. (2002). Auditor reporting for going-concern uncertainty. Auditing: A Journal of Practice & Theory, 21(1), 123–139. https://doi.org/10.2308/aud.2002.21.1.123
5. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). (2015). International Standard on Auditing (ISA) 570 (Revised): Going concern. IFAC.
6. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). (2009). International Standard on Auditing (ISA) 315: Identifying and assessing the risks of material misstatement. IFAC.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz